

ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIDA FOLKLOR MOTIVLARI: MIFOLOGIK OBRAZLAR (TOG'AY MUROD IJODI MISOLIDA)

Tolib Najmiddinov

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti ilmiy xodimi*

Annotation

The article analyzes Jamal Kamal's epic "The Philosopher". The epic is about the great son of Uzbek, academician Ibrahim Mominov, and the artistic value of the epic, which tells about his life path, is revealed in the article.

Key words

epic, prototype, philosophy, religion, genre, plot, development of events, lyric digression, climax, monologue.

Xalqning tafakkur tarzi ibtidosida ramz va timsollar tili bilan aytilgan mifologik dunyoqarashlar, bilimlar, barcha urf-odat va marosimlar, san'at turlari, folklor va adabiyotning paydo bo'lishida, rivojlanishida asos vazifasini o'tagani ma'lum. Mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonlari o'ziga xos ravishda kechgan. Xalqimizning dunyo tamaddunidagi o'rnini uning boy mifologik tizimi, obrazlari, syujet tiplari, yetakchi motivlarini ko'rsatish, bugungi folklor janrlari genezisi va badiiyatida miflarning roli va xizmatini aniqlash yo'lida ko'plab tadqiqotlar qilinmoqda.

Mifologik tafakkur – zamonaviy san'at va adabiyotda mifologik syujet va obrazlarning yangi talqinlari paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Yozma adabiyotdagi Mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ayni shu sababli aksariyat ijodkorlar folklorga – Mifologik obrazlarga qayta-qayta murojaat qilmoqda.

Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy adabiyot o'zida qator jihatlarni aks ettira olishi bilan ahamiyatli hisoblanadi, ya'ni unda ishtirok etgan ayrim elementlar badiiy asarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini namoyon qiladi.

Chunonchi:

- a) asar syujetida ayrim fantastik elementlarni ishtirok ettirish;

- b) asar mazmuniga mifologik xususiyatlarni singdirish;
- c) zamonaviy adabiyotda mavjud bo'lgan badiiy-tasviriy elementlarni tasvirlash;
- d) zamonaviy adabiyotda "eski adabiyot"ga murojaat qilish shakllarini bayon etish va hokazo.

Mifologik obrazlar – xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar [1; 75]. Demak, ta'rif mohiyatidan ko'rinib turganidek, zamonaviy adabiyotda mavjud bo'lgan nasriy asarlarda mifologik obrazlarni aks ettira olish uchun bevosita "o'tmishga murojaat qilish" muhim ahamiyat kasb etadi. Mifologik obrazlar aynan bir voqelikning jonli timsoli sanalib, u o'zida sehr, afsona, ramziylik kabi qator jihatlarni umumlashtiradi.

Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan.

Folklor asarlaridagi tush motivida xalq qarashlarida, tasavvurida o'zining chuqur izini qoldirgan, nafaqat xalq og'zaki ijodi asarlarida balki yozma adabiyot namunalarida ham faol namoyon bo'ladigan obrazlardan biri Xizrning ishtirok etishi asarlarga milliy ruh bag'ishlashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, Xizr obrazi o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi va yozma adabiyotda turli xil badiiy vazifalarda keladi. Bu haqida M. Jo'rayev va Sh. Shomusarovlarning "O'zbek mifologiyasi va arab folklori" nomli kitobida quyidagicha fikr bildiriladi:

- 1) Xizr – boshiga mushkul savdo tushgan kishilarga homiylik qiluvchi afsonaviy xaloskor;
- 2) Xizr – o'zining zukko maslahatlari bilan odamlarga yaxshilik qiluvchi donishmand;
- 3) Xizr – boqiy hayot suvini topib ichganligi uchun abadiy barhayotlikka erishgan afsonaviy qahramon;
- 4) Xizr – shifobaxsh chashmalar ko'zini ochgan g'ayrioddiy shaxs;
- 5) Xizr – cho'l va sahrolarda g'oyibdan paydo bo'lib, qiyin ahvolda qolgan kishilarga ko'mak beruvchi ezgulik timsoli;
- 6) Xizr – dehqon dalasiga mo'l hosil va baraka ato etuvchi hosildorlik ramzi;
- 7) Xizr – odamlarni hamisha qo'llab-quvvatlab turadigan ezgu pir yoki aziz avliyolardan biri» [2; 111].

"Oydinda yurgan odamlar" qissasi qahramoni Qoplonning Xizr boboni tush ko'rishi bilan bog'liq lavhalarda ham bu o'z isbotini topgan:

«Qop-qora bulutlar Archako'tal cho'qqilarini chalib ketdi. Televizor stansiyasi, To'xtamish tova qirlari-da ko'rinmay qoldi. Bulut katta lalmi cho'qqilarini-da bosdi.

Shunda... shunda, bulutlar orasida bir chol paydo bo'ldi. Chol ust-boshlari oppoq bo'ldi. Ostidagi eshagi-da oppoq bo'ldi. Taqimida uzun hassa bo'ldi.

Otamiz cholni qayerdadir ko'rganday bo'ldi. O'ylab-o'ylab, esladi: bargga borganda ko'rib edi. Otamiz ko'ngliga tahluka tushdi: "kim bo'ldi, bu mo'ysafid?" deya o'yladi.

Bulutlar aro momaqaldiraq qarsilladi. Ayqash-uyqash tasmalar yonib-o'chdi: yashin chaqnadi. Otamiz seskanib tushdi.

Chol parvoyiga-da kelmadi. Chol yaqin keldi Yuzlari yaqqol bo'ldi... Otamiz o'ylab o'yiga yetdi... Seskandi... Yoqa ushladi...

"Yo, qudratingdan! Chiningmi shu?"..

Otamiz sapchib turdi. Cholga peshvoz yurdi. Qo'li ko'ksida bo'ldi.

– Assalomu alaykum! –dedi...

– Qani, omonmisiz, esonmisiz...

Otamiz shunday deya, chol qo'lini kaftlariga oldi. Chol seskanib qo'l tortdi.

Otamiz cholni tanidi: hazrati Xizr bobo! Boisi, boshmaldog'ida suyagi yo'q! U kishining boshmaldog'i suyaksiz bo'ladi!

Hazrati Xizr bobo odamzod mushkulini oson qilajak, hojatini chiqarajak ezgulik piri! Otamiz o'zida yo'q quvondi! Dardiga davo topganday bo'ldi. Entikdi! Yayradi!

Ana shu zot, ana! Shu zotning bir og'iz so'zi! Nima uchun shu zotni vaqtlitiroq yo'qlamadi?

Ana, oxiri o'zlar yo'qlab keldi! O'zlari-o'zlari aytgan-da, borayin, shunday bir kuygan bandam bor, dardiga quloq solayin, degan-da!

Hazrati Xizr aytsalar, yo'qdan bor bo'ladi! Hazrati Xizr bobo og'rindilar.

– Men yo'liqqan odamlar ichida eng noma'quli sen bo'lding, – dedilar.

– Qo'l uzatib, odobsizlik qilding.

– Aybimdan o'ting, hazrati Xizr bovajonim, aybimdan o'ting! Otamiz tevarakka alangladi.

Tevarak ovloq bo'ldi.

Umrida birinchi marta... birinchi marta... inson oldida tiz cho'kdi! Kaftlarini insonga cho'zdi. Yonoqlaridan marjon-marjon yoshlar sizdi... Dardini yorib-dardini yorib qo'ya berdi:

– Hazrati Xizr bovajonim! Sadag'angiz ketayin, hazrati Xizr bovajonim, meni avf eting! Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodonlik qildim, ko'rlik qildim!.. Aslida sizni yo'qlashim darkor edi!..Tirnoqqa zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz tilang, manavi choponimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo'ldi, hazrati Xizr bovajonim!..

– Menga mol-dunyo darkor emas...

– Unda, menga bir farzand bering, hazrati Xizr bovajonim! Dunyodan qo'li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajonim! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo'lsa-da bo'ldi! Faqirga palov! Bilasizmi-yo'qmi, Xushvaqt yo'lida ko'zimiz to'rt, hazrati. Xizr bovajonim!

– Dunyodan ko'p noliy berma...

–Bizni bu dunyoga bog'lab qo'ygan emas... Bir kunmas-bir kun tanamiz soviydi. Shunda, kim bizning isi chirog'imizni qiladi. Kim otamlab yig'laydi? Kim enamlab yig'laydi? Birov, hech bo'lmasa birovgina otamlab yig'lasa ekan, birovgina enamlab yig'lasa ekan, hazrati Xizr

bovajonim!

– Boriga shukr qil...

– A? Ko'p-ko'p farzand beraman dedingizmi? Qachon-qachon? Qulluq, hazrati Xizr bovajonim, qulluq! Qani edi, ko'p-ko'p bo'lsa! O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi, hazrati Xizr bovajonim!..

Hazrati Xizr bobo ko'zdan g'oyib bo'ldilar» [3; 313-316].

Umuman, Xizr obrazi Islom diniga ko'ra payg'ambarlardan biri bo'lib, Xizr uchun ilk nisbat, bu so'z tilga olinganda xayolimizda gavdalanadigan yetakchi tasavvur uning doimiyliigi, barhayotligi, hech qachon o'lmasligi bilan bog'liq. U yo'lda, dashtda, o'rmonlarda tunda ham, kunduzi ham kezib yuradi. U go'yoki uyqudagi inson bilan ham muloqotga kirishish xususiyatiga ega. Xizr musulmon xalqlari tushunchalarida asosan nuroniy chol sifatida Xizr bobo, Xo'jai Xizr, Hazrati Xizr nomlariga ega. U nuroniy chol qiyofasida ko'rinib, unga kim yo'liqsa, kim uni ko'rsa, baxtli bo'ladi. Folklor namunalarida esa Xizr ko'pgina sifatlari bilan namoyon bo'lib, qiyinchilikka uchragan va uning nomini atab madad tilagan kishilarga yordam beruvchi, doston yoki ertak qahramonlariga quvvat, benihoya kuch ato eta oluvchi, asarlardagi ijobiy obrazlarga pirlilik maqomidagi rahmdil bir obraz sifatida talqin etiladi. Jumladan, Go'ro'g'li jufti halolini topish umidida nima qilishini bilmasdan uyquga ketadi. O'sha kechada uning tushiga oq soqolli kishi qiyofasida Xizr kiradi:

«Tushda bir oq soqolli kishi kelib, Go'ro'g'lining peshonasidan o'pib aytadiki: «Ey, Go'ro'g'li, sen xafa bo'lma, xudo hammani o'z jufti bilan yaratgan. Sening jufting Ko'hi Qof tog'ida makon tutgan Jahon podshoning qizi Og'a Yunus pari bo'ladi. Mana bu parizodga bir nazar tashla, keyin yo'l g'amini ko'raver. Uch oylarda yetarsan, deb zim-ziyo bo'lib ketdi» [3; 140].

Shu dostonda Xizr bilan aloqador ikkinchi bir lavha Go'ro'g'lining Eram bog'iga kelganidan keyingi voqealar bilan bog'lanadi. Go'ro'g'li uch oylardan keyin Eram bog'iga yetib keladi:

“Shu vaqtda Go'ro'g'lining oldiga oq soqolli bir kishi chiqadi. O'ng yoqqa qarab sal yursang, ko'zlagan joyingga yetasan, ammo parizodni saqlaydigan ajdarhodan ehtiyot bo'l, og'zini ochganda mana shu narsani og'ziga tashla, deb kichik bir lattani qo'lga berib, zim-ziyo bo'ldi” [1; 142].

Xizr har ikkala holda ham bosh qahramonga yo'l ko'rsatuvchi, uning maqsadini amalga oshirishda asosiy yordamchi – homiy, hamma narsani biluvchi sehrGAR sifatida namoyon bo'ladi. U hamisha bosh qahramonni mushkul muammolardan qutqarib, to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Xuddi shunga o'xshab, Qoplon ham Oymomo bilan xafalashgandan so'ng, nima qilishini bilmasdan qorovulligiga yo'l olib, o'sha yerda uyquga ketadi. O'shanda uning tushiga oppoq libosda, oq soqolli, oppoq eshakda, taqimida uzun hassasi bor kishi qiyofasida Xizr kiradi. Xalq dostonlaridagidek, Xizr Qoplonga ikki marta uchraydi: biri ilgariroq o'ngida, bargga borganida ko'rgan edi; ikkinchisi esa tushida ko'rinishi, Xizr obrazining insonning uyqudaligida ham muloqotga kirishish xususiyatini eslatadi. Qissadagi Xizr obrazi folklor an'analari

qahramonga yo'l ko'rsatuvchi, hamma narsadan ogoh sehrigar sifatida namoyon bo'lib, asar qahramonini mushkul holatdan qutqarib, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Bu qissaning quyidagi o'rinlarida Qoplonning bezovta ruhiyatini tinchlantirish hamda umid uyg'otish maqsadida Xizr bobo tilidan aytilgan so'zlarda ham o'z aksini topadi:

- Dunyodan ko'p noliy berma...
- Boriga shukur qil...
- Men senga farzand berganman...
- Qanday otasanki, o'z farzandingni bilmaysan? Hali ko'p farzand beraman» [7; 75].

Bu so'zlar nafaqat asar qahramoni Qoplonga taskin beradi, balki minglab shu og'riqdan iztirob chekayotgan o'zbek kishilarining dardiga ham malham bo'ladi. Ehtimol, shu boisdan ham qissa chin o'zbek ruhiyatini aks ettirganligi bilan ham ko'plab kitobxonlar qalbini larzaga keltirgan bo'lsa, ajab emas.

Bundan tashqari asarning qamrov doirasi jihatdan olsak, Xizrning bu so'zlari orqali uni o'qigan kitobxonning har biri g'oyibona bo'lsa-da shunday pok, sofdil insonlarga farzandlik tuyg'usini tuyadi. Shu boisdan yozuvchi qo'llagan "bobomiz", "momomiz" so'zlari har bir inson qalbida "bobom", "momom" bo'lib jaranglashi ham bejiz emas.

Tog'ay Murodning milliy ruhni singdirishdagi qo'llagan bu epizodisiz qissa, ehtimol, bu qadar ta'sirchan, jonli, hayotbaxsh, xalqchil chiqmasligi mumkin edi. Negaki, Xizr obrazi orqali adib Qoplonning biz bilmagan, faqat qalban his etish mumkin bo'lgan o'zbeklarga xos fazilatlar va asarning milliyligini ta'minlashdagi o'ziga xos unsurlarini namoyon etgan bo'lsa, ajab emas. Ayni chog'da tush manzaralaridagi qo'llangan bu o'rinlar qissaning o'ziga xos eng yuksak badiiy sayqallangan nuqtalari bo'lib, bundan ko'rinib turibdiki, adib xalq orasida keng tarqalgan udumlarga, hatto turli ilohiy pirlarga ishonishini, ularning inson ruhiyatida qoldirajak izlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Xususan, biz yuqorida tahlil qilgan tush hodisasini ham asarlariga shunchaki kiritmaganligining guvohi bo'ldik. Ularga o'ziga xos tarzda yondashib, ma'lum vazifalar yuklatiladi. Shu boisdan asarlari adabiyot olamida o'ziga xos o'rin egallagan. Muhimi shundaki, adib tushning inson hayoti va ruhiyati bilan bog'liqligini har doim his etib turgan.

Tush motividan tashqari adib qissalarida, xalq doston va ertaklarida ko'p uchraydigan an'anaviy motivlardan biri – yetishmovchilik, ya'ni farzandsizlik motivining ham o'ziga xos talqin jarayonini kuzatish mumkin.

Farzand – hamma millatning mentalitetida bor. Ammo, o'zbek xalqi farzandlarga o'zgacha munosabatda bo'lishadi. Ehtimol, farzandsizlik boshqa xalqlarda unchalik katta fojia hisoblanmaydi. Biroq, o'zbek xalqi uchun bu chinakam fojia. Shu boisdan xalqimizning milliy tafakkur tarzini o'zida aks etgan boy ma'naviy merosimiz hisoblanmish xalq og'zaki ijodimizning turli janrlarida farzandsizlikning asosiy mavzularidan biriga aylanishi bejiz emas. Zero, bizda qadimdan farzand ulug'lanib kelingan. E'tibor beradigan bo'lsak, folklor asarlarimizda farzandsizlik asosan asar boshida qayd etiladi. Oila a'zolarining farzand sabab

baxti to'kis bo'lmaydi. Tog'ay Murod ham shu farzandsizlikni, xalq og'zaki ijodi an'alariga sodiq qolgan holda o'zbeklarga xos dardni o'ziga xos yo'sinda talqin etdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ko'pgina ijodkorlar xalq og'zaki ijodiga xos motivlardan ijodiy oziqlanish orqali zamonaviy nasrda folklor an'alaridan ham samarali foydalanishi mumkinligini, muhimi milliy ruhiyatni o'ziga singdira olgan chinakam yetuk badiiy asarlar yarata olishini ko'rsatib berdi. Ayniqsa, folklor asarlardagi tush va farzandsizlik motivining Tog'ay Murodga xos yo'sindagi badiiy talqini, qissalarga beqiyos mazmun va umrboqiylik baxsh etgani diqqatga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. (O'quv qo'llanma). – T.: Barkamol fayz media, 2017.
2. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – T.: Ziyo nashr, 2019.



www.jurnal.isft-ilm.uz

A QR code that, when scanned, likely leads to the journal's website.

t.me/isftjurnal

A QR code that, when scanned, likely leads to the journal's Telegram channel.